

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**



**FARG‘ONA  
DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**“Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!”**

**mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy  
anjumani materillari**

**2-qism. Tabiiy fanlar**

**Farg‘ona, 2022-yil 20-yanvar**

**R. Yunusov – Buxoro davlat universiteti dotsenti**

**F.A. Ganiyeva – Buxoro davlat universiteti o’qituvchisi**

**Z.A. Alimova, O.O. Orifov – Buxoro davlat universiteti talabalari**

## **INTENSIV BOG’LARDA KESISHNI OLMA DARAXTLARNING O’SISHI VA HOSIL SHAKLLANISHINING FITOMETRIK KO’RSATKICHLARIGA TASIRI**

Mamlakatimizda intensiv (jadallashtirilgan) urug’li mevali bog’lari turli xil nav-payvandtaglar kombinatsiyalarida, daraxtga muayyan to’g’ri shakl berish, turli xildagi kesish usullari va darajalari, tejamkor tomchilatib sug’orish tizimlari samarali ishlab chiqarishga keng joriy qilinmoqda. SHuni alohida qayd etish lozimki, bunday urug’li meva bog’larida maqbul pakana va yarim pakana nav – payvandtaglar kombinatsiyalari hamda ishlab chiqarish sharoitiga mos keladigan ko’chat qalinligi va tejamkor sug’orish usullarini qo’llash boisi har yil muttasil mo’l va sifatli hosil olishini tasirlash muhim davr talabi hisoblanadi.

Kesish – mevachilikda kuchli tasir etuvchi eng muhim usul hisoblanib, uning mevali daraxtlarga tasiri bir qator agronomik va biologik sabablarga to’liq hisobga olinadi. Intensiv olma bog’larida daraxtlarning o’sish va rivojlanishida, transpiratsiyani yaxshilashda, fotosintez mahsuldorligini oshishida, hosildorlik miqdori va sifatini yoqori bo’lishida kesishning ijobiy tasiri ko’pgina olimlar tomonidan aniqlangan.

Ilmiy tadqiqot ishlari 2016-2021 yillar davomida Buxoro viloyati, Buxoro tumani “AminHaët bog’i” fermer xo’jaligida o’tkazildi. Xo’jalik tuprog’i qadimdan sug’oriladigan o’tloqi-alluvial va iqlimi keskin kontinental hisoblanadi, sizot suvlari 2.5-2.8m chuqurlikda joylashgan. Tadqiqotlar mazkur fermer xo’jaligida 3xil MM-106 o’rta o’suvchi, payvandtagga ulangan – Renet Simirenko, Golden Delishes va Pervenets Samarkanda navlarida o’tkazildi.

Tajribada hosil bo’lgan o’suvchi shoxlarda 3-4yillik tsiklik kesish almashinuvi va ularda 4-8, 8-12, 12-16 kurtaklar qoldirish va qisqartirishsiz variantlar qo’llanildi. Nazorat esa ishlab chiqarish sharoitida amal qilinaëtgan tavsiyalar asosida, yani quruq, kasallangan va bir – birini o’sishiga xalal beradigan hosil shoxlari kesildi.

Kesilgan shox-shabballarning massasi kesish variantlarida Golden Delishes, renet Simirenko va Pervenets Samarkanda navlarida mos ravishda 1.2-3.4kg, 0.5-3.4kg nazorat variantiga nisbatan oshganligi tadqiqot variantiga nisbatan oshganligi tadqiqot variantlarda aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlarda MM-106 payvandtagga ulangan Golden Delishes, Renet Simirenko va Pervenets Samarkanda navlarining to’qqizinchi yilida kesilgan daraxtlar qatorlar bo’ylab uzunasiga tutashganligi aniqlandi. Variantlarda o’suvchi daraxt shox-shabballarining balandligi 3.20-3.65m atrofida bo’ldi.

Ëshartiruvchi va meërlashtiruvchi tadbirlari o’tkazilgan variantlarida esa daraxt tanasi proektsiyalari ostidagi maydonlarning o’zlashtirilishi 47-54% ni tashkil qildi, ushbu ko’rsatkich jadallashtirilgan tipdagi hozirzamon sanoat bog’lari uchun maqbul meë darajada hisoblanadi.

Tadqiqot yillari davomida o’rtacha hosildorlik, hosil berib bo’lgan shoxlarni o’rindosh sifatida 3-4yillik tsikl bo’yicha ëshartirilganda va hosil beruvchi shoxlarda 4tadan 16tagacha hosil kurtagi qoldirib kesilganda – olmani Golden Delishes navida 0.4-4.0ts/ga cha, Renet Simirenko navida esa 0.9-3.5ts/ga cha va Pervenets Samarkanda navida nazariy variantiga nisbatan 0.6-3.1ts/gacha qo’shimcha va sifatli hosil olindi. Eng yaxshi natijalar hosil berib bo’lgan shoxlarni 3-4yillik ëshartirish fonida hosil beruvchi novdalarda 8-16dona hosil kurtaklarini qoldirgan variantlarda olindi.

O’rganilgan qirg’ish variantlarda bir dona olmani o’rtacha vazni nazorat variantiga nisbatan Golden Delishes navida 41-56% grammni, Renet Simirenko navida esa 16-35gramm va Pervenets Samarkanda navida 35-49gramm gacha oshdi, bu variantlarda hosil sifat ko’rsatkichlari ham yaxshilandi.

SHuningdek, o’rganilgan olma navlarida eng mo’l hosildorlik va yoqori sifatli mevalarga erishilgan variantlar – bu hosil berib bo’lgan shoxlarni o’rindosh sifatida 3-4 yillik tsikl bo’yicha ëshartirib, hosil beruvchi shoxlarda 8-16dona hosil beradigan kurtaklarni qolirib kesilgan variantlarda erishildi.

**“Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!” mavzusidagi Respublika onlayn  
ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

<b>Sh.N. Omonov, M.Sh. Rahimov.</b> Arvohkapalak ( <i>Sphingidae</i> ) larning biologiyasi, ekologiyasi va tabiatdagi ahamiyati	92
<b>Ф. Абдувалиева, Ш. Хушматов.</b> Ўқувчиларда жисмоний ва интеллектуал ривожланиш ўртасидаги боғлиқликни ўрганиш.	94
<b>S.O'. Dadajonova.</b> Spirulina suv o'tining ahamiyatli jihatlari va inson organizmiga ta'siri	95
<b>С.Э. Фундукчиев, Г.У. Сарибоева.</b> О расширении гнездового ареала кольчатой горлицы в Узбекистане	96
<b>G. Yakubova, X. Muhammadjonova.</b> Yurak qon-tomir sistemasi kasalliklarini bolalar va o'smirlarda uchrashi va uni oldini olish	97
<b>S.A. Jakbaraliyeva.</b> Oqsilning yashirin xususiyatini kashf qilish quyoshdan foydalanish texnologiyasini qanchalik oshiradi	99
<b>M.N. Abdurahmonova.</b> Kremniy - raqamli asrning bosh qahramoni	100
<b>A.D. Xodiyeva.</b> Laetiporus sulphureus zamburug'ining tarqalishi va bioekologiyasi	101
<b>M.Masodiqova, H.Umurzaqova.</b> Anorzor agroekotizimlariga zararli hasharotlarning ta'siri	103
<b>X.T. Rayimberdiyeva.</b> Biozaratlanishning oldini olish –sifatli hosil garovidir	104
<b>N.N. G'oziyeva.</b> Nafas olish sistemasi mavzusini o'qitishda o'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi	106
<b>G.M. Zokirova, Sh. Kamolov.</b> Oltinko'z ( <i>Chrysopidae: Chrysoperla</i> ) entomofagining biologiyasiga doir	108
<b>K.D. Rahimberdiyeva, A.A. Vaxobjonov.</b> Markaziy osiyo mamlakatlariga xos bo'lgan umumiy muammolar	109
<b>E.X. Najmiddinov, A.Z. Rasuljonov.</b> Baliqlar sangvinikolyozi va ularni oldini olish	110
<b>E.X. Najmiddinov, A.Z. Rasuljonov, A.R. Hamdamov.</b> Baliklarda ligulyoz va rafidaskaridoz kasalliklarini oldini olish	111
<b>Sh.M.Toshtemirova.</b> Zoologiya fanini o'qitishning zamonaviy elektron o'quv materiallari bazasini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari va bosqichlari	112
<b>J.Y. Roziqov, X.U. Isayeva.</b> Yer sirtidagi obektlarning quyosh radiatsiyasini qaytarish xususiyatlari	113
<b>Sh.A. Sharipov.</b> Silikat shishalar xususiyatlariga ion almashtirishning ta'siri	114
<b>J.I. Tursunov.</b> <i>Cistanche mongolica</i> o'simligini vitamin tarkibi	116
<b>Н. Охунова, Г. Зокирова.</b> <i>Tuberolachnus salignus</i> Gmelin (Homoptera, Aphidoidea) ширасининг биоэкологияси ҳақида	117
<b>М.Е. Имомова, С.А. Каримова.</b> Изучения химического состава мёда и уровни детализации по тн вэд	118
<b>Г.И. Туремуратова.</b> Қорақалпоғистон шоли далалари зоопланктон организмлари	120
<b>R. Yunusov, F.A. Ganiyeva, I.Y. To'xtayev.</b> Ertangi kartoshkani ekish muddatlari va tartibini o'sish va hosildorligiga ta'siri	121
<b>R. Yunusov, F.A. Ganiyeva, Sh.U. Ro'ziyev, O.O. Orifov.</b> Intensiv pakana nok daraxtlarini mahsuldorligining nav-payvandtaglar kombinatsiyalariga bog'liqliligi	123
<b>Д. Инамжонов, А. Абдубокиев, С.З. Омонтурдиев, Ш.Хушматов.</b> <i>Matricaria chamomilla</i> L. ўсимлик экстрактининг вазорелаксант таъсири	124
<b>Д.А. Исматуллаева, Д.А.Азимова.</b> Применение антибиотиков нового поколения для подкормки гусениц тутового шелкопряда	125
<b>T.M. Begmatov.</b> Erakond stimulyatorini ipak qurtini hayotchanligiga ta'siri	126
<b>Ш.Р. Тошматова.</b> Фойдали хашаротлар ва уларнинг қишлоқ хўжалиги ва халқ хўжалигида тугган ўрни	128